

IDIOMALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

N.A.Risboyeva, student, UzSWLU, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqola inson ongi bilan bog'liqligi, ularning xususiyatlarining kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishini nazariyalar orqali batasil izohlab beradi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvist, konseptual metafora, nazariya, tushuncha, fraza

Annotation: This article provides a detailed explanation of the study of human consciousness and its characteristics from the perspective of cognitive linguistics, elaborating through various theories.

Keywords: cognitive linguist, conceptual metaphor, theory, concept, phrase

Kirish. Idiomalar kundalik so'zlashuvda fodalaniladigan eng muhim frazalar hisoblanadi. Ular alohida bo'laklarga bo'linmaydi. Idiomalar so'zlashuvga yaxlit holatda kiritiladi va ma'lum ma'nolarni anglatadi. Idiomalarni o'rganishda ko'plab kognitiv tilshunoslar va faylasuf olimlar (Lakoff & Johnson, Gibbs & Colston, Fauconnier & Turner, Cacciari & Tabossi, Kovalyuk, Kovecses, Langlotz, Piirainen) ilmiy asarlar yaratishgan.

Kognitiv lingvistlar idiomalarning inson miyasida qanday sintez qilinayotgani, ular psixikaning turli jarayonlari va holatlari bilan qanchalik bog'liq ekanligini o'rganadilar. Tadqiqotlar davomida idiomalarni tushunishda, ularning ma'nolarida anglashda xizmat qiladigan kognitiv xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Konseptual metafora asos. Ushbu nazariya birinchi bo'lib Amerikalik kognitiv lingvist va faylasuf G.Lakoff va M. Johnson tomonidan yozilgan "Metaphors we live by" asarida to'liq yoritib berilgan. Asarda metaforalar va idiomalarning kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularni tushunish jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan bog'ligi aniqlangan. Lakoff va Johnson ko'pchilik idiomalar metafora shaklida uchrashini va o'zgarib boruvchi kognitiv mexanizmlar ekanligini, ular insonlar dunyoqarashini ya'ni insonlar dunyoni qanday tasavvur etishini anglatuvchi til birliklari ekanligini ta'kidlashadi. Misol sifatida "flood of emotions" iborasini olsak, undagi "flood" so'zi insonlarning hayotdagi shu so'z haqidagi his-tuyg'ularini, qiyinchiliklarini anglatgan. Shuningdek ular metafora haqida: "Bizning kundalik konseptual tizimimiz asosan metaforik tabiatga ega", deb yozgan va o'z fikrlarini dalillash maqsadida ko'plab misollar bergan. Yana bir olim Sullivan ham bu haqda quyidagi fikrlarni bildirgan: "Agar metafora kontseptual darajada mavjud bo'lsa, bu semantik jihatdan bog'liq so'zlarning ko'pincha o'xshash metaforik ishlatilishini tushuntiradi".

Madaniy bog'liqlik. Madaniy bog'liqlik idiomalarning keyingi asosiy kognitiv xususiyati hisoblanadi. Ko'plab idiomalar xalqning turmush-tarzi, urf-odatlar, madaniyati bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Masalan, "mind the gap" iborasini inglizlardan boshqa millatlar tushunishda qiyinchilik tug'ilishi mumkin. Sababi bu so'z London metrolarida tunnellarga kirishdan oldingi ogohlantiruvchi so'z hisoblangan. Vaqtlar o'tishi bilan bu so'z xalq orasida "watch out" so'ziga sinonim tarzda foydalanish boshlangan. Mashhur olim, lingvistik nisbiylik tushunchalarining asoschisi Benjamin Li Whorf insonlar til orqali dunyoqarash va fikrlashlarini shakllantirishini ta'kidlaydi. Bu esa madaniyatlar bilan farqlanayotgan idiomalarning inson dunyoqarashi bilan qanday bog'liqlari borligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Aqliy tasavvur (Mental imagery). Kognitiv olimlarning fikricha ushbu metod aniq va mavhum tushunchalarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Bu sohani o'zlarining Kognitiv aralashish nazariyasi (Conceptual blending theory) orqali o'rganishga muvaffaq bo'lgan olimlar Mark Turner va Gilles Fauconnier mental imagery metodining qanchalik muhim ekanligini ko'plab kitoblarida aytib o'tishgan.

Turner va Fauconnierning ilmiy ishlari shuni ko'rsatadiki, idiomalarda turli qismlar orqali yangi ma'no hosil qilinadi. Bunday vaziyatda esa mental imagery metodi. Ularni tasavvur qilish va komponentlarni bir-biriga moslashtirishga xizmat qiladi. Misol uchun, "burning the midnight night oil" idiomasi 2 xil ma'no kelib chiqadi. Birinchisi, chiroqning kechasi yonib turishi, ikkinchisi, qattiq mehnat va yarim kecha manzaralari. Bu holatda blending metodi orqali bu iboraning asl mohiyatini ya'ni mehnat va qat'iyat ma'nolarini tushunish mumkin.

Shuningdek, yana bir iborada- (He let the cat out the bag) da sirni oshkor qilish kabi mavhum ma'no "mushukning sumkadan chiqishi" ni tasavvur qilish orqali yoritilyapti. Bu esa olimlarning mental imagery metodi abstrakt va aniq tushunchalar o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishi to'g'risidagi fikrlarining isboti bo'la oladi.

Xulosa: Idiomalar insonlar dunyoqarashini aks ettirganligi tufayli ularni o'rganish fikrlash va muloqot qilishdagi o'ziga xos jarayonlarni tushunishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Lakoff & M. Johnson (1980) "Metaphors we live by"
2. Kovalyuk Yuriy (2023) "Idioms in linguistics Is it all about conceptual metaphor theory?"
3. Sullivan "Cognitiv Psychology"
4. Mark Turner & Gilles Fauconnier "The way we think"